

TEKNOLOGIYA DARSLARI VA TEKNOLOGIYA FANINING AHAMIYATLI TOMONLARI

Berdiyeva Kamola Nortoziyeva
Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti
Pedagogika Fakulteti Talabasi

Kalit so'zlar: *texnologiya , texnologik bilim, mehnat tarbiyasi, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, sinfdan tashqari ishlar, kasbga yo'nalganlik,*

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnatga qiziqish uyg'otishda texnologiya fanining o'rni katta. Bolalarda kattalar mehnatiga ijobiy munosabat erta uyg'onadi. O'quvchilarga Texnologiya darsni o'tish mobaynida ularga oddiy mehnat ko'nikmalarini o'rgatib qolmay , ayni vaqtda bola uchun zarur axloqiy sifatlarni ; mustaqillik , maqsadga intilish, topshirilgan ish uchun mas'uliyatni his qilish, maqsadga erishish uchun qat'iyatlilik,tengdoshlariga xushmuomalalik va hokozolarni singdirish ham muhimdir. Buning uchun o'qituvchida pedagogik texnika bo'lishi muhim.

Pedagogik texnika nima? Pedagogik texnika – bu tarbiyachining pedagogik jarayonda qo'llaydigan yo'l , usul va ko'nikmalari yig'indisidir. Pedagogik texnikaga oid ko'nikmalar ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruh ko'nikmalariga o'z xulqi va xatti – xarakterlarini boshqarish , idora qila olish bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmalar kiradi. Masalan , mimika , pantomimikadan unumli foydalanish , emosiya va kayfiyatni boshqarish , nutq texnikasi , diqqat kuzatuvchanlik , ijodiy hayollar kabilar shular jumlasidandir.

Ikkinchi guruh ko'nikmalar bevosita shaxsga va jamoaga ta'sir etishda namoyon bo'ladi va ta'lim tarbiya jarayoning texnologik tomoni takomillashtirishga xizmat qiladi. Bu guruh ko'nikmalariga didatik , tashkilotchilik , konstruktiv kommunikativ ko'nikmalari kiradi. Bulardan tashqari , bolalar oldiga talablar qo'ya bilish , pedagogik muloqotni boshqarish , bolalarning ijodiy ishlarini tashkil qilish kabilar ham shu guruh ko'nikmalariga kiradi.

Kuzatishlardan ma'lumki, yosh tajribasiz tarbiyachi -o'qituvchi yuqoridagi pedagogik ko'nikmalarining barchasi mavjud bo'lmaydi yoki ular o'z takomiliga yetmagan bo'ladi. Shu sababli ularning pedagogik faoliyatida ko'plab kamchiliklar darrov ko'zga tashlanadi. Ana shunday kamchiliklar qatoriga bolalar yoki ularning otalari bilan yurakdan gaplasha olmaslik , nutqda tez gapirish yoki jumlar tuzishda xatolarga yo'l qo'yish, bolalar guruhiga birinchi kirganda o'zini yo'qotib qo'yish, nutqning monotonligi , ovozni baland yoki pastligida eng qulay darajasini topa bilmaslik , qo'l, oyoq, hgavda harakatlarini nazorat qila olmaslik kabilar kiritish mumkin . Bularning barchasi yosh o'qituvchida pedagogik texnikaning yetishmasligining oqibatidir. Bu kamchiliklar pedagogik jarayonda, bolalar ta'lim

tarbiyasiga so'zsiz salbiy ta'sir etadi. Pedagogika institutlarining vazifasi esa bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik texnikani yaxshiroq shakllantirish, ularning pedagogik faoliyatga yaxshiroq tayyorlashdir.

Boshlang'ich sinflardagi texnologiya darsi orqali singdiriladgan mehnat tarbiyasining zamon talablari asosida olib borilishi hozirgi kun tartibida turgan dolzarb muammolardandir. Bolalar mehnati ularga hayotiy tajriba tushunchalar berish va bolalarning ijodkorligiga asoslangan faoliyatning muhim vositasi hisoblanadi. Ayniqsa, axloqiy tarbiya berishda texnologiya fanining o'rni kattadir.

Bugungi kunda jamiyatimiz uchun har tomonlama rivojlangan fan texnika taraqqiyotini hayotga tadbiq eta oladigan yetuk, malakali kadrlar tayyorlash masalasi turibdi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni mehnatga tayyorlash, ularning qiziqishlari, moyilliklari va imkoniyatlariga asoslangan qo'l mehnati hisoblanadi. Shu munosabat bilan texnologiyani o'qitish jarayoni o'quvchida ushbu yosh uchun bilim, mehnat, axloqiy, estetik, iqtisodiy, ekologik va aqliy imkoniyatlarini aniq mehnat jarayonlarida rivojlantirishga qaratilgan, natijada ularni mehnatga tayyorlashni keying sinflarda davom ettirilishi zarur aloqadorlik hosil qilinadi.

Qo'l mehnati jarayonida bolalar asosan ishlab chiqarish texnologiya chiqindilari(qogoz, karton, yumshoq sim, yog'och, gazmol, va boshqalar) bilan: tabiiy va sun'iy xom-ashyolar(maxsus loy, yog'och va plassmassalar, plastilin,yelim va boshqalar) bilan keng iste'mol mollari vaxalq hunarmandchilik mahsulotlari, tayyorlash uchun mahalliy xom ashyolar bilan elektr, radiotexnika to'plamalri va hokazolar bilan ishlashga o'rganadilar. Bularning hammasi o'quvchilarga qo'l mehnati va asboblari bilan ishlash, har xil xom-ashyolardan foydalaninshning ma'lum tajribasini to'plashga imkon beradi. Bu esa mehnatning qadrini va ma'nosini tushunishga, mehnat kishilariga hurmatda bo'lishga, mehnatning va kasbning u yoki bu turiga qiziqishlarini shakllantirishda yordam beradi.

O'quvchilar texnologiya darslarida bundat ko'nikmalarni olishni qog'oz va kartondan foydalaning va ularga ishlov berishdan boshlaydilar. Turli xildagi bezaklar, tabriknomalar, hayvonlar maketi va boshqa ishlarni amalga oshirishda qog'ozdan foydalanadilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini qo'l mehnatiga o'rgatish orqali qog'oz va kartondan tashqari quyidagi ish turlarini ham bajarish mumkin;

1 Turli materiallar bilan ishlash

- A. Applikatsiyalar va mozaika ishlari
- B. Loy va plastilin bilan ishlash
- C. Tabiat materiallari bilan ishlash

2 Gazlama bilan ishlash

3 Loyihalash va modellashtirish ishlari

4 Qishloq xo'jalik ishlari

Bu ish turlarini barchasi boshlang'ich sinflarda qo'l mehnati jarayonida o'quvchilardagi kasb tanlash ishlariga qaratilgan.

Barcha fanlarda qo'llanilgani kabi texnologiya darslarida ham ta'limning ko'rsatmali vositalaridan foydalaniladi. Jumladan, texnologiya darslarida turli xil namuna, rasm, sxematik namuna, turli predmetlarning modellari, shuningdek, texnika vositalaridan foydalaniladi. Bu esa o'quvchilarga ishlab chiqarishda asosiy yordam vazifasini bajaradi

O'quvchilarda jamiyatimiz quruvchisiga xos bo'lgan shaxsiy sifatlarni tarkib toptirish uchun mehnat va kasb tanlash oson kechishi maqsadida texnologiya darslari o'qitiladi.

Mehnat tarbiyasi, mehnatga munosabatni tarbiyalash maktabdagi o'quv hamda sinfdan tashqari ishlarning o'zagi, maktabni hayot bilan aloqasini mustahkamlashning asosiy yo'lidir. O'quvchilarni mehnatga psixologik va amaliy tayyorlash maktabning asosiy tarbiyaviy vazifalaridan biridir. Maktabning turmush bilan aloqasi kundankunga mustahkamlanib bormoqda. O'quvchilarni mehnat faoliyatiga psixologik va amaliy tayyorlash o'quvchilar ijtimoiy foydali mehnatning har xil turlarida qatnashayotgan vaqtlarda xilma-xil tarbiyaviy tadbirlar kompleksini qo'llash orqali amalga oshirilishi kerak. O'quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan tashqari ish maktabning butun ta'lim tarbiyaviy tadbirlar kompleksini qo'llash orqali amalga oshirilishi kerak. O'quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan tashqari ish maktabning butun ta'lim tarbiyaviy ishining ajralmas qismi bo'lib, u Bolani har tomonlama rivojlantirish, darslarda egallayotgan bilimlarni mustahkamlash, sinfdan tashqari ish ayni bir vaqtda o'quvchilarning bilim chegarasini kengaytiradi. Texnologiya darslari bolalarda fan, texnika, san'atning turli xil sohalariga qiziqishni o'stirish masalalarini eng maqbul yo'l bilan hal etishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) Юсупова, Махпуза Нумановна. "БИОЛОГИЧЕСКИЙ МЕТОД ЗАЩИТЫ РАСТЕНИЙ." Scientific Impulse 1.9 (2023): 1460-1464.
- 2) Юсупова, Махпуза Нумановна. "САБЗАВОТ ЭКИНЛАРИГА БИОЛОГИК КУРАШ ҲАҚИДА МУЛОҲАЗАЛАР." Scientific Impulse 1.9 (2023): 1469-1473.
- 3) Юсупова, Махпуза Нумановна. "ФАРҒОНА ВОДИЙСИ ШАРОИТИДА ИГНА БАҒЛИ ДАРАХТЛАРНИ ЗАРАКУНАНДАЛАРДАН ҲИМОЯЛАШ." SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI 6.4 (2023): 316-320.
- 4) Юсупова М. Н., Ахмедова М. М. МЕВАЛИ ДАРАХТЛАРНИ ЗАРАКУНАНДАЛАРИГА УЙҒУНЛАШГАН КУРАШ ЧОРАЛАРИ //ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ. – 2020. – Т. 2. – №. 8.
- 5) Ходжаев, Ш. Т., Сагдуллаев, А. У., Исаев, О. Б., & Юсупова, М. Н. (2011). Проблемы защиты растений в Узбекистане. Защита и карантин растений, (8), 23-24. Юсупова М. Особенности защиты хлопчатника посеянного под пленки от вредных организмов //Автореф. канд. дисс./М. Юсупова–Ташкент. – 2001.

- 6) Ходжаев, Ш. Т., Юсупова, М. Н., Курязов, Ш., & Саттаров, Н. (2008). Перспективы биологической защиты хлопчатника от хлопковой совки. Сб. трудов.-Ташкент: Таллин, 44-49.
- 7) Yusupova M. N., Nosirov B. Z. Pests of cotton and straw control at collection //EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)-Peer Reviewed Journal. – 2020. – Т. 6. – №. 12. – С. 57-61.
- 8) Yusupova M. N., Axmedova M. M. Mevali daraxtlarni zararkunandalariga uyunlashgan kurash choralari //Jurnal JURNAL AGRO PROTSESSING. Data publikatsii. – 2020. – №. 8. – С. 12.
- 9) Yusupova M. N. Biological method of crop protection in the fergana valley //Agrarian science. – 2018. – №. 6. – С. 68-70.
- 10) Urmonovich, Numonov Otabek. "MANGOSTEEN NUTRITIONAL PRICE AND FUNCTIONAL PROPERTIES." ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 14.5 (2023): 3-5.
- 11) MN, Yusupova, and B. Z. Nosirov. "Control Of Cotton Pests On Stubble Lands." International Journal of Applied 10.2 (2015): 99-108.
- 12) Юсупова М. Н., Тургунова А. Н., Очилов С. Н. Система интегрированной защиты растений //Российский электронный научный журнал. – 2015. – №. 1. – С. 169-174.
- 13) Alimzhanova Z. I., Kadyrova D. S., Yusupova M. N. Ceramic pigments based on raw materials from Uzbekistan //Glass and Ceramics. – 2014. – Т. 70. – №. 11-12. – С. 441-443.
- 14) Yusupova M. N., Gapparov A. M. Biological Method Of Plant Protection In Uzbekistan //The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering. – 2020. – Т. 2. – №. 11. – С. 29-32.
- 15) Rashidovna M. N., Urmonovich N. O. Comparative Characteristics of the Leaving of Glutathione From Cells of Different Types //International Journal on Orange Technologies. – Т. 2. – №. 10. – С. 79-82.
- 16) Юсупова М. Н., Носиров Б. З. БИОЛОГИЧЕСКИЙ МЕТОД ЗАЩИТЫ РАСТЕНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ //Научно-практические пути повышения экологической устойчивости и социально-экономическое обеспечение сельскохозяйственного производства. – 2017. – С. 498-501.
- 17) Urmonovich, N. O. (2023). MANGOSTEEN NUTRITIONAL PRICE AND FUNCTIONAL PROPERTIES. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 14(5), 3-5.
- 18) Yusupova M. et al. Protection of after harvest cultures-as a reservetors of cotton pests //Agriculture and Biology Journal of North America. – 2013. – Т. 4. – №. 5. – С. 576-582.
- 19) Ходжаев, Ш. Т., Юсупова, М. Н., Юлдашев, Ф., Исаев, О. Б., & Шокирова, Г. (2011). Борьба с вредителями хлопчатника на пожнивных культурах в севообороте. Вестник защиты растений, (2), 46-52.

- 20) Yusupova M. N. et al. Possibilities of the biological method of cotton plant protection //Agriculture and Biology Journal of North America. – 2011. – Т. 2. – №. 5. – С. 742-744.
- 21) Ходжаев, Ш. Т., Юсупова, М. Н., Юлдашев, Ф., & Жамалов, А. Г. (2010). Хлопковая совка на пожнивных культурах. Защита и карантин растений, (12), 22-23.
- 22) Хайдарова, Х. А., Юсупова, М. Н., Ихтиярова, Г. А., & Хайдаров, А. А. ПОЛУЧЕНИЕ ХИТОЗАНА ИЗ ПОДМОРА ПЧЕЛ APIS MILLIFERA. Сучасний рух науки: тези доп. XI міжнародної науково-практичної інтернет-конференції, 8-9 жовтня 2020 р.–Дніпро, 2020.–Т. 2.–426 с., 352.
- 23) Yusupova M., Turgunova A., Ochilov S. INTERGRATED PLANT PROTECTION SYSTEMS.
- 24) Abduhamidovich N. A. et al. MANGOSTIN DARAXTI VA MEVASINI TIBBIYOTDA FOYDALANISH //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 28. – №. 2. – С. 12-14.
- 25) Urmonovich N. O. MANGOSTEEN NUTRITIONAL PRICE AND FUNCTIONAL PROPERTIES //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 14. – №. 5. – С. 3-5.
- 26) Юсупова, Махпуза Нумановна. "АНОРНИ ЗАРАРКУНАНДАЛАРДАН ҲИМОЯЛАШ." PEDAGOG 6.4 (2023): 562-567.